



ISSN 3030-3710 (P)

ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY

AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY

AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ

И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 9, 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy

<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.

+998905124244 Ostanov Sh.Sh.

<https://t.me/OstanovSH>

Haydarov Anvar Askarovich
Buxoro davlat universiteti ingliz tilshunosligi kafedrası professori
Alimova Mubina
2-bosqich magistranti

SUPERSEGMENT FONETIK VOSITALARDA KONNOTATIV MA'NONING IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada supersegment fonetik vositalarning konnotativ ma'noni ifodalashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Supersegment vositalar – intonatsiya, urg'u, pauza kabi fonetik elementlar – matn yoki nutqning emotsional, ekspressiv va konnotativ ma'nolarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Maqolada ushbu vositalarning turli kontekstlardagi funksiyalari, ularning nutq mazmunini boyitishga, ma'noni noziklik bilan ifodalashga va kommunikativ samaradorlikni oshirishga qaratilgan xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, konnotativ ma'no yaratishda supersegment vositalarning semantik va pragmatik jihatlari yoritiladi.

Tadqiqot natijalari lingvistika, fonetika va kommunikatsiya sohalarida ilmiy izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: supersegment vositalar, intonatsiya, urg'u, pauza, konnotativ ma'no, fonetika, kommunikatsiya.

ВЫРАЖЕНИЕ КОННОТАТИВНОГО ЗНАЧЕНИЯ СУПЕРСЕГМЕНТНЫМИ ФОНЕТИЧЕСКИМИ СРЕДСТВАМИ

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение суперсегментных фонетических средств в выражении коннотативного значения. Суперсегментные средства – такие как интонация, ударение, пауза – играют важную роль в формировании эмоциональных, экспрессивных и коннотативных значений текста или речи.

В статье рассматриваются функции этих средств в различных контекстах, их способность обогащать содержание речи, тонко выражать значения и повышать коммуникативную эффективность. Также освещены семантические и прагматические аспекты суперсегментных средств в создании коннотативного значения.

Результаты исследования имеют практическую ценность для ученых, занимающихся исследованиями в области лингвистики, фонетики и коммуникации.

Ключевые слова: суперсегментные средства, интонация, ударение, пауза, коннотативное значение, фонетика, коммуникация.

EXPRESSION OF CONNOTATIVE MEANING IN SUPERSEGMENT PHONETIC MEANS

Annotation. This article analyzes the role and significance of suprasegmental phonetic tools in expressing connotative meaning. Suprasegmental tools—such as intonation, stress, and pauses—play a crucial role in shaping the emotional, expressive, and connotative meanings of text or speech.

The article examines the functions of these tools in various contexts, highlighting their capacity to enrich the content of speech, convey meanings with subtlety, and enhance communicative effectiveness. Additionally, it explores the semantic and pragmatic aspects of suprasegmental tools in creating connotative meaning.

The findings of the study are of practical value for researchers conducting scientific investigations in the fields of linguistics, phonetics, and communication.

Keywords: suprasegmental tools, intonation, stress, pause, connotative meaning, phonetics, communication.

Til uch vazifani: nominativ, kommunikativ, va ekspressiv xususiyatlarini bajara oladigan qudratli vositadir. Tilning atash funksiyasi tafakkur formasi, ya'ni tushunchalarni ma'lum bir qolipga soluvchi vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning hissiy ta'sirchanligi emotsional- ekspressiv funksiyasi tilning mustaqil sistema ekanligi, til vositalarning mohiyati, ularning ichki munosabatlarda ochilishi mumkin ekanligi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Tildagi har qanday birlik nutq jarayonida voqelanadi. Leksik birliklar borlikdagi narsa va hodisalarni nomlaydi, shu bilan birga so'zlovchiga ta'sir etish vazifasini ham bajaradi. Fonetik birliklarda esa fonemalar o'zining asosiy vazifasidan tashqari yana emosional-ekspressiv va appellyativ vazifani ham bajaradi. Bunday birliklarda "qo'shimcha" ma'nolar nutqni ta'sirchan qiladi va uni jonlantiradi. Har qanday "qo'shimcha" ma'no tasodifan sodir bo'lmaydi. U muayyan asoslarga tayan-gan xolda yuzaga chiqadi. Fonetik vositalarda konnotativ ma'no va uning yuzaga chiqish sabablarini ochib berish, konnotativ ma'noning nutq uslublaridagi ahamiyatini ko'rsatish tilshunoslar oldida tur-gan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki fonetik uslubiy vositalarning tadqiqot doirasi nihoyatda kengdir. Shu sababdan konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi, nutqning va-zifaviy uslublari, ularning artikulyasion- akustik va prosodik xususiyatlarini aniqlash, ularni turli til-lar timsolida qiyosiy planda o'rganish, orfoepiya bilan bog'liq talaffuz uslublari, ya'ni turli shart-sharoitda o'zaro farqlanuvchi talaffuz ko'rinishlari va bu hodisalarning uslubiy vazifasini belgilash muhim hisoblanadi. Fonostilistikada tilning tovush materiali, shuningdek, bo'g'in, urg'u, pauza hamda intonasiyada turli qo'shimcha ma'nolarning ifodalanishi o'rganiladi. Fonetik birliklar umumiytilshunoslikda segment va supersegment atamalar bilan ataladi. "Urg'ular tildagi superseg-ment (ustama) element hisoblanadi. Supersegment element to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuvchi, ya'ni seg-ment(asos) element ustiga qurilgan ifoda elementidir. Intonasiyada ma'lum tildagi gaplarning talaffuz etilish me'yori haqida bahs yuritiladi. Ularning talaffuz etilishi me'yori esa supersegment element hisoblanadi¹.

Intonatsiyada konnotativ ma'no darajasi o'zining sostavli elementlari: nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq intensivligi, nutq tembi, logik va fraza ug'ullari bilan xarakterlanadi.

Intonatsiya nutq uslublarining barchasida uchraydi. Ilmiy uslubdan tashqari barcha nutq uslublarida intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi kuchlidir.

Intonatsiya gapda turli xil vazifalarni bajaradi. Jumladan, u gap turini, komponentlari orasidagi bog'lanishini, modalligini, emotsional bo'yog'ini hamda ifodalagan sanash, qarama-qarshi qo'yish, chog'ishtirish kabi qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi.

Intonatsiyaning nutq jarayonidagi rolini maxsus monografik tarzda tilshunos L.A.Kanter o'rgangan. u ingliz va rus tillari materiallarini qiyosiy va system tahlil qilgan. Olimning ushbu mono-grafiyasining uchinchi bobi to'liq nutqiy intonatsiyaning fonostilistik tahliliga bag'ishlangan. Umu-man intonatsiya nutq jarayonida ikki vazifani bajaradi:

1. Nutq oqimini ma'noli bo'laklarga ajratish va shu asosda mazmun ifodalash
2. Nutqda emotsional o'ttenka ifodalash.

Jumladan, past pasayuvchi ohangni ingliz va o'zbek tillarida talaffuz qilish jarayonida ovoz o'rta diapozondan eng pastga tushib, e'tiborsizlik, sovuqqonlik, befarqlik hislarini ifodalaydi. So'roq gaplarda esa bunday ohang jiddiylik, mas'uliyatlilikni ifodalaydi.

Masalan,

a) Holatni ifodalashda:

Pete plays tennis very well. – Petya tennisni juda yaxshi o'ynaydi.

Ushbu gapni talaffuzi jarayonida ovoz pastga tushadi hamda qator qo'shimcha ma'nolar: qoni-qish, xursandlik ifodalanadi.

b) Buyruqni ifodalashda:

Shut the door! – Eshikni yoping!

¹ Миртожиев М. Товушлардаги маъно.-Т.: "Ўқитувчи". 1982.-246.

Buyruq ohangidagi talaffuz qilingan ushbu gapda buyruq, do'q urish, qat'iyatlik kabi "qo'shimcha" ma'nolar yuzaga chiqadi.

Umumiy so'roq gaplarda:

Do you mind opening the door? – Eshikni ochishga qarshi emasmisiz?

Ushbu gapda so'roq mazmuni bilan bir qatorda "yalinish" qo'shimcha ma'nosi ham ifodalangan.

What a fine day! – Qanday ajoyib kun!

Ushbu gapda diqqatni tortish, taajjub kabi konnotativ ma'nolar ifodalangan.

Yuqoridagi gaplarning tahlili shuni ko'rsatadiki, intonatsiyaning o'zgarishi bilan so'zlovchining turli xil hissiyotlari ifodalanadi, ya'ni jumlar bir-biridan ajratiladi va so'zlovchi o'zi aytgan fikriga bo'lgan munosabatni ko'rsatadi.

Intonatsiyaning bir elementi hisoblangan pauza ham gap tarkibidagi elementlarning grammatik holati va mazmunini belgilashga yordam beruvchi supersegment element bo'lib, u nutq zanjiridagi to'xtash, uzilishdir.

Kishilar orasidagi aloqa-aralashuvda pauza noverbal informatsiya vositasi, uslubiy figura sifatida ishtirok etadi va situativ, ijtimoiy hamda psixologik omillar bilan bog'liq holda o'ziga xos ahamiyatga ega. Pauzada tinglovchi diqqatini tortish, araz, kinoya kabi qator qo'shimcha ma'nolar ifodalanadi.

Pauzaning lingvististik vazifasi, avvalo, gap ichida sintagmalarni ajratish bo'lsa, ikkinchidan, gap mazmuniga ta'sir qilish, og'zaki va yozma nutqda muayyan bo'lakni ta'kidlashdir¹. Chunki nutqimiz yaxlit bir uzluksiz oqimdan iborat bo'lmay, mazmun yaxlitligiga ko'ra ko'ra bo'linib-bo'linib turadi. Bu bo'linish artikulyatsion-fiziologik ehtiyoj tufayli yuzaga keladi. Til bu birlikni, ya'ni pazani ustalik bilan nutq mazmuniga xizmat qildiradi.

Pauza o'z xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) tinish belgilari qo'yiladigan o'rinlardagi ma'noli pauza; 2) ritmik pauza. Birinchi, ya'ni ma'noli pauza og'zaki va yozma nutqqa xos doimiy va ajralmas hodisa bo'lsa, ritmik pauza esa faqat she'riy nutqda uchraydi.

Pauza ko'pincha gapning oxirida bo'ladi. Lekin shunday pauzalar ham borki, ular gapning intonatsiyasi bilan bog'liq holda jumlaning turli o'rinlarida kelishi mumkin. Bunday pauzalar, odatda, ovozning ko'tarilishi yoki pasayishi bilan aniqlanadi. Intonatsiyaning xarakteriga ko'ra pauzalar darak, so'roq, undov mazmunida bo'lishi mumkin. Bu uning gap mazmunini belgilovchi sintaktik vazifasidir. Shu bilan bir qatorda, pauza uslubiy vazifa ham bajaradi.

Pauza eng avvalo, akustik jihatdan tovush tugashini, fiziologik jihatdan artikulyatsiyaning to'xtashini bildiruvchi hodisadir. Pauza – bir sintaktik birlikni ikkinchisidan ajratadi ayni zamonda emotsional-ekspressiv o'ttenka ham ifodalaydi. Nutqda pauza turli holatlarni aks ettiradi.

Urg'u supersegment (ustama) vositalardan biridir. Supersegment element segment (asos) ustiga qurilgan ifoda elementi. Urg'ular tilning turli sathlariga tushib nutq jarayoni zanjirini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Urg'u fonetikaning aktsentologiya bo'limida ham o'rganiladi. Aktsentologiya (lot. accentus-urg'u, grek. logos-so'z, ta'limot). Fonetikaning urg'uni (urg'uning tabiati, tipi, vazifasi va h.k.) o'rganuvchi bo'limi. "Urg'u bu chuqur izlanishlarni talab etuvchi ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lgan qaltis hodisadir"². Urg'uning vazifasi delimativlik bilan cheklanmaydi, balki so'zning birligini ta'minlashda va so'zlarning bir-biridan prosodik farqini ko'rsatuvchi differensial belgi bo'lib xizmat qiladi.

Gap urg'usi turli darsliklarda logik urg'u, intonatsion urg'u terminlari bilan ham yuritiladi. Bunday urg'u gapdagi so'zni mazmun jihatidan ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Intonatsion urg'u gapdagi hamma bo'g'inlarga ham tushadi va deyarli hamma holatda saqlanib qoladi.

Logik urg'u bilan bog'liq holda nutqda ellipsis hodisasi ro'y beradi. Logik urg'u gap tartibidagi diqqat qaratilgan bo'lakni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham logik urg'u gap tarkibidagi istalgan bo'lakka tushishi mumkin.

¹ А.А.Хайдаров "Узбек тили фоностилистики" Бухоро-2006,- Б.31.

² А.Гуломов "Узбек тилида ургу" Т.:Фан, 1947.

Uslubiy jihatdan qaraganda, logik urg'u natijasida ellipsisning sodir bo'lishi nutq tejamkorligiga olib keladi. Ellipsis ko'pincha xalq maqollarida uchraydi.

Xullas, til birliklarida konnotativ ma'no turlicha ifodalanadi. Konnotativ ma'no qanday til birligida ifodalanmasin unda denotative ma'no ifodalagan semalar saqlanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Миртожиев М. Товушлардаги маъно.-Т.: "Ўқитувчи". 1982.-246.
2. А.А.Хайдаров "Узбек тили фоностилистикаси" Бухоро-2006,- Б.31.
3. А.Гуломов "Узбек тилида ургу" Т.:Фан, 1947.

248	Akilov Faridun Firdavsovi Maktab direktori o‘rinbosarlarida rahbarlik mas’uliyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
256	Kamolov Akramjon Akmaljon o‘g‘li Ichki ishlar idoralari tibbiyot xodimlarini kasbiy sifatlarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
265	Shamuratova Muazzamxon Shavkat qizi Milliy xalq o‘yinlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini aqliy qobiliyatlarini takomillashtirish
270	Abdug‘aniyeva Diyora Abdurashid qizi Depressiya– destruktiv emotsional holat sifatida
277	Baltayev Umid Rustamovich Ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida o‘quvchilarni milliy musiqa maqom san’ati orqali psixologik tarbiyalash
281	Jabbor Alisher Musirmon o‘g‘li Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni konstruktiv tushunish dinamikasining psixologik tahlili
285	Adilova Munisa Furkatovna Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish yo‘llari
288	Ashurova Marhabo Sayfulloyevna Milliy tarbiya va integratsiyalashuv jarayoni
293	Hayitov Anvar Isomiddin o‘g‘li, Jo‘rayeva Nargiza Xusan qizi O‘zbekiston va finlandiya ta’lim tizimi tizimining qiyosiy tahlili mazmuni
297	Maxmudov Ibragimjon Ismailovich Rahbarlik malakarini rivojlantirish treningi
303	Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li Sharq mutafakkirlarining kasb tanlash va kasb-hunarga yo‘naltirish haqidagi qarashlari (Abu Nasr Farobiy misolida)
308	Ramazonov Jahongir Djalolovich Kadrlar tayyorlashda axborot istemoli madaniyatining o‘rni
312	Usmonov Sherzod Axmadjonovich Talabalarning verbal va noverbal intellektini psixologik xususiyatlari
317	Xolturayev Asqarjon Panjiyevich Oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarida kreativlikni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish
321	Yoqubova Gulhayo Erkin qizi Eshitish imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik himoya mexanizmini takomillashtirishda komputer dasturiy vositalaridan foydalanish
324	Кенжаева Хуршида Пулатовна Основные педагогические аспекты духовного воспитания студентов высших учебных заведений
332	Baratov Sharif Ramazonovich YANGI YIL TABRIGI

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL**

№ 9, 2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrda 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2024.
№ 9. – 339 b.**